



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**OLIV TA‘LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI  
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI  
OSHIRISHNI TASHKIL ETISH BOSH ILMIY - METODIK  
MARKAZI**

**TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI  
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI  
OSHIRISH TARMOQ MARKAZI**

**TIL TEXNOLOGIYASI**

**moduli uchun**

**O‘QUV-USLUBIY MAJMUA**

**Malaka oshirish kursi yo‘nalishi:**

**O‘zbek tili filologiyasi:  
o‘zbek tilshunosligi**



**ALISHER  
NAVOIY**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI  
TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**Toshkent – 2023**

**Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020-yil 7-dekabrdagi 648-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv dasturi va o‘quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan.**

**Tuzuvchi:**

**N. Z. Abduraxmonova** –  
O‘zbekiston milliy universiteti  
Kompyuter lingvistikasi va amaliy  
tilshunoslik kafedrasini mudiri, filologiya  
fanlari doktori

**Taqrizchi:**

**B. Mengliyev** – filologiya fanlari  
doktori, professor

**S. Normamatov** – filologiya fanlari  
doktori. ToshDO‘TAU

**E. Ushenmez** – filologiya fanlari  
doktori, professor. Turkiya Istanbul  
universiteti

**Ushbu o‘quv-uslubiy majmua Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.**

*(202\_\_-yil \_\_\_\_\_dagi \_\_-sonli qarori)*

**MUNDARIJA**

<b>T/r</b>	<b>Bo‘limlar</b>	<b>Sahifa</b>
<b>I.</b>	<b>ISHCHI O‘QUV DASTUR</b>	<b>4</b>
<b>II.</b>	<b>MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI</b>	<b>14</b>
<b>III.</b>	<b>NAZARIY MASHG‘ULOT MAZMUNI</b>	<b>27</b>
<b>IV.</b>	<b>AMALIY MASHG‘ULOT MAZMUNI</b>	<b>54</b>
<b>V.</b>	<b>KEYSLAR BANKI</b>	<b>63</b>
<b>VI.</b>	<b>GLOSSARIY</b>	<b>67</b>
<b>VII.</b>	<b>ADABIYOTLAR RO‘YXATI</b>	<b>73</b>
<b>VIII.</b>	<b>TAQRIZ</b>	<b>79</b>

## I. ISHCHI O‘QUV DASTUR



## KIRISH

Dastur O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 26-sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 278-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 12-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4732-son, 2016-yil 13-maydagi “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida”gi PF-4797-son, 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ 2909-son Qarori yo‘nalishlari mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u zamonaviy talablar asosida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasbiy kompetentligini muntazam oshirib borishni maqsad qiladi.

Bugungi globallashtirish va integrallashtirish jarayonida kompyuter texnologiyalari kiberfazoning muhim va ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Sohalararo fanlarning yuzaga kelishida kompyuter taraqqiyotida erishilgan natijalar kuchli ta’sir qilganligi hech kimga sir emas. Endilikda filologik sohalar axborot texnologiyalariga va aksincha axborot texnologiyalarning filologik ta’limga ta’sirlashuvi natijasida fan oldida turgan murakkab masalalar o‘z yechimlarini topib kelmoqda.

“**Til texnologiyasi**” moduli Oliy ta’lim professor-o‘qituvchilari malakasini oshirish tizimi oldidagi davr talabiga mos ravishda tuzilgan kurs sifatida e’tirof etish mumkin. Mamlakat hayotida yuz berayotgan jiddiy o‘zgarishlar va yangilanishlar, shubhasiz, til texnologiyasida amalga oshirilayotgan yangi qarashlarni oliy ta’limda ham joriy etishni taqozo etmoqda.



Til ijtimoiy hodisa ekan undagi muammolarni yechishda axborot kommunikatsion texnologiyalarning o‘rni beqiyos. Bu borada til texnologiyasi fani muhim ahamiyat kasb etadi. Lingvistik bilimlarni rivojlantirish bo‘yicha dunyo tajribasiga tayanish hamda erishilgan yuksak natijalardan oqilona foydalanish talab etiladi.

Erishilgan ilmiy yutuqlardan foydalangan holda ushbu kurs yangi texnologik metodlar va til texnologiyasi uchun qo‘llaniladigan lingvistik instrumentlardan foydalanib, o‘zbek tilining internet tilini (kompyuterda qayta ishlash mumkin bo‘lgan mashina o‘qiy oladigan til) yaratishga qaratilgan ustuvor vazifalarni maqsad qilib qo‘yadi.

### **Modulning maqsad va vazifalari**

“Til texnologiyasi” modulining maqsadi malaka oshirish kursi tinglovchilarida sohaga doir bilimlarni rivojlantirish, til texnologiyasi tamoyillarini o‘zlashtirish, til resurslarining elektron bazasini shakllantirish va uni ta’lim jarayoniga tadbiiq etishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun fan talablari nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalalar ilmiy jarayonlarga uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirish orqali erishiladi. Til texnologiyasi kursi malaka oshirish kursi tinglovchilarida yangicha ilmiy yondashuvlarni ta’lim sohasi va ilmiy tadqiqot uchun keng tadbiiq etishga ko‘maklashish, ularni amalda qo‘llash ko‘nikmalarini o‘rgatishni ko‘zda tutadi.

Ushbu modulning vazifalari quyidagilardan iborat:

- kurs tinglovchilarini til texnologiyasi bilan bog‘liq kompyuter lingvistikasi, korpus lingvistikasi va mashina tarjimasiga aloqador ilmiy yangiliklar bilan tanishtirish;
- professor-o‘qituvchilarda OTMlarda til texnologiyasidagi yangi metodlar va innovatsion texnologiyalarni o‘zlashtirish orqali Kompyuter lingvistikasi fanidan ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarini o‘tishda, shuningdek, boshqa yondosh sohalarda ham faol qo‘llay olish ko‘nikmasini qaror topdirish;

- lingvistik platformalar va resurslarni yarata olish hamda internet imkoniyatlaridan erkin foydalangan holda dars jarayonida ulardan foydalana olish malakasini shakllantirishdan iborat.

### **Modul yuzasidan tinglovchilar bilim, ko‘nikma, malaka darajasiga qo‘yiladigan talablar**

“Til texnologiyasi” moduli yuzasidan tinglovchilar quyidagi **bilimlarga** ega bo‘lishi kerak:

- mashina tarjimasi texnologiyasini;
- kompyuter lingvistikasi, tabiiy tilni qayta ishlash va til texnologiyasiga doir tushunchalarni o‘zlashtirish;
- matematik mantiq, algoritm, ma’lumotlar bazasi, lingvistik resurs hamda kompyuter instrumetlari haqida ma’lumotga ega bo‘lish;
- grammatik nazariyalar, jumladan tobelik nazariyasi; tabiiy tilni qayta ishlash bosqichlari: stemmizatsiya, tokenizatsiya, lemmatizatsiya; til va nutqni qayta ishlovchi dasturiy ilovalarni bir-biridan farqlay olish;
- til texnologiyasining amaliy yo‘nalishlari hamda texnologiyalari haqida tasavvurga ega bo‘lish.

Ushbu modul tinglovchida quyidagi **ko‘nikmalarni** shakllantirishga xizmat qiladi:

- mashina tarjimasi texnologiyasi bo‘yicha ilg‘or tajribalardan foydalanish;
- kompyuter lingvistikasiga doir tushunchalarning umumiy va farqli jihatlarini chuqur o‘zlashtirish;
- kurs bo‘yicha egallangan nazariy bilimlarni ta’lim jarayonida foydalana olish;
- kompyuter texnologiyalarni filologik ta’limda joriylanishini baholash va yutuq va kamchiliklarini ajrata olish.

Ushbu modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar quyidagi **malakalarni** egallashlari mo‘ljallanadi:

- og‘zaki matnlar bilan ishlovchi (Praat va boshqalar) texnologiyasidan foydalana olish;
- korpusga asoslangan ta’lim texnologiyalarini (AntConc, BootCat, Sketch engine kabilar) ta’lim jarayonida amalda qo‘llay olish;
- mashina tarjimai texnologiyalari (Wordfast, SmartCat, DejaVu kabilar) va instrumentlarini ilmiy faoliyati jarayonida ishlata olish.

### **Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar**

“Til texnologiyasi” moduli ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi. Moduldagi ilmiy qarashlar mohiyatini tinglovchilarga yetkazish jarayonida o‘qitishning zamonaviy usullari, badiiy adabiyot va estetika ilmidagi eng so‘nggi yutuqlardan foydalanish ko‘zda tutilgan:

- ma’ruza shaklidagi saboqlarda milliy va chet el adabiyot metodikasi fanlaridagi so‘nggi yutuqlardan foydalanish;
- masofadan o‘qitish orqali tinglovchilarning adabiyot o‘qitishga doir yangiliklarni mustaqil egallab olishlariga imkon yaratish;
- amaliy mashg‘ulotlarda ta’limning fikriy hujum, kichik guruhlar bilan ishlash singari interfaol usullarini qo‘llash ko‘zda tutiladi.

### **Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi**

“Til texnologiyasi” moduli o‘quv rejadagi mutaxassislik fanlarining barchasi bilan uzviy bog‘langan.

### **Modulning Oliy ta’limdagi o‘rni**

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar “Til texnologiyasi” mutaxassislik fanini o‘qitishning eng ilg‘or yo‘llarini egallaydilar, ularda har qanday ilmiy darajadagi auditoriya ahli bilan adabiy yaratishlar to‘g‘risida fikr



bildirish ko‘nikmasi shakllantiriladi. Natijada, fanni o‘qitish samaradorligini sezilarli oshiradi.

### Modul bo‘yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Auditoriya yuklamasi		
		Jami	Jumladan:	
			Nazariy	Amaliy
1.	Til texnologiyasi kursiga kirish.	2	2	
2.	Mashina tarjimasini texnologiyasi.	2		2
3.	Korpus texnologiyasi. Korpus taksonomiyasi	2		2
4.	Kompyuter leksikografiyasi. Tezaurus. Tezaurus yaratishning lingvistik masalalari	2	2	
5.	Nutqiy sintezator. Praat dasturi bilan ishlash.	2		2
	<b>Jami:</b>	<b>10</b>	<b>4</b>	<b>6</b>

### NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

**1-mavzu. Til texnologiyasi kursiga kirish.** Texnologiya turlari. Til va nutq texnologiyasini qayta ishlashda kompyuter lingvistikasi va NLP. *Til texnologiyasi* bu kompyuter texnologiyalari yordamida til bilan bog‘liq masalalarni o‘rganuvchi sohalar kesimida yangi paydo bo‘lgan fan hisoblanadi. Ushbu kurs o‘z ichiga kompyuter lingvistikasi va NLP larni qamrab oladi.

Til texnologiyasi (inson tili texnologiyasi) kompyuter va elektron asboblarning kishilar tomonidan tuzilgan tabiiy matn va nutqiga muayyan darajada javob bera oladigan, moslashish yoki jarayonlarni analiz qila oluvchi bilimlar yig‘indisi

hisoblanadi. U Kompyuter lingvistikasi, Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) va Nutq texnologiyasi kabi qismlardan iborat.

Til texnologiyasi 40 yil davomid a tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) sohasida erishilgan ilmiy natijalarning 1990-yillarga kelib sun'iy intellekt tarkibida shakllangan sohasidir.

Til texnologiyasining fan sifatida shakllanishi alohida ahamiyatga molik. Negaki, fan lingvistika, matematika, statistika, kompyuter texnologiyalari bilan bog'liqdir. Til tafakkur bilan bog'liq ekan uning texnika bilan yoki aniq fanlar bilan bog'liqligini tushunishda uning nazariy ildizlarini o'rganish taqozo etiladi. Dastlab 1952 yili Massachusetts texnika universitetida Mashina tarjimai bo'yicha o'tkazilgan ilk ilmiy-amaliy konferensiya hamda 1954 yil 7 yanvarda Nyu-Yorkdagi Jorjtaun universiteti bilan IBM kompaniyasi hamkorligida birinchi IBM II mashina tarjimai dasturining amalda sinovdan o'tkazilganligi Kompyuter lingvistikasining yaratilishiga omil bo'lgan muhim voqealik sifatida qarash mumkin.

**2-mavzu. Kompyuter leksikografiyasi. Tezaurus. Tezaurus yaratishning lingvistik masalalari.** Semantik to'r va ma'lumotlar bazasi bilan ishlash. Ontologiya. Semantik munosabatlarni yaratishda konsept tushunchasi. Globallashuv jarayonida jamiyatda qanday o'zgarishlarga qaramay, kishilar muloqotining kaliti bo'lgan tilning o'rni oshib bormoqda. Shu bois muloqotning yanada optimal usullarini topishda olimlar ko'plab takliflar bildirishmoqda. Kommunikatsiya uchun yagona universal tilni yaratish prinsiplarini o'rganuvchi Interlingvistika fani yuzaga kelgan bo'lsa, boshqa tomondan barchaga tushunarli bo'lishi uchun sun'iy tillarning yaratilishi ham mana shu yo'ldagi sa'yi harakatlardan biri bo'ldi, desak yanglishmagan bo'lamiz.

Shu o'rinda kompyuter texnologiyalarning ham jadal sur'atlarda takomillashib jamiyatning barcha tarmoqlarida o'z o'rnini topayotgani esa, ko'plab sohalarda kompyuter bilan ishlash ehtiyojini yaratdi, bu jarayon, shubhasiz, yangi yo'nalishlarga asos bo'ldi. Mobil qurilmalar orqali istalgan

vaqtda foydalanish imkoniyati mavjudligi elektron lugʻatlarning turli takomillashgan variantlarini vujudga kelishiga hamda kompyuter leksikografiyasining rivojlanishiga omil boʻldi. Bunday ijtimoiy voqealik negizida fanda erishilgan samarali mehnatlar bilan bir qatorda kunning dolzarb ehtiyojlari yotganligini koʻrish mumkin. Kompyuter leksikografiyasi (KL) kompyuter lingvistikasining muayyan yoʻnalishi sifatida kompyuter lugʻatlarini yaratish, lingvistik maʼlumotlar bazasi va leksikografik masalalarni dasturlash kabi vazifalarni qamrab oladi. Ayrim manbalarda KL leksikografik manbalarni olish, ular bilan bogʻliq lingvistik maʼlumotlarni berilganlar bazasiga yozish, leksikografik birliklarni tahrirlash kabi masalalarni kompyuter metodlari hamda uskunalari yordamida foydalanish soha sifatida qaraladi.

Kompyuter va lugʻatshunoslik oʻrtasidagi oʻzaro muvofiqlashuv oʻtgan asrning 60-yillariga oʻz ifodasini topdi. Bu yillarda Brown korpusi, 1978 yilda avtomatik tekshiruvchi hamda tilni qayta ishlash uchun maxsus kodlangan Zamonaviy ingliz tili Longman lugʻati (Longman Dictionary of Contemporary English) yaratildi.

Lugʻatlarning tavsiflanishi uch aspektga koʻra ajratiladi:

- lugʻatning yaratilishiga koʻra maqsad va vazifalari;
- lugʻatda tavsiflangan matnlar;
- foydalanuvchilarning kategoriyasi.

## AMALIY MASHGʻULOTLAR MAZMUNI

**1-mashgʻulot. Mashina tarjimasi texnologiyasi.** Tarjima xotirasi. Parallel korpus. Wordfast, SmartSat texnologiyalari bilan ishlash. Oʻzbek tili uchun ham mashina tarjimasining lingvistik taʼminotini yaratish muhim ishlardan sanaladi. Ochiq platformali parallel matnlar muhitini yaratish uchun CAT texnologiyasi yordamida dastlabki bosqich amalga oshiriladi. Mashina tarjimasining CAT (computer assisted translation- kompyuter yordamidagi tarjima) texnologiyasi parallel matnlar asosida lingvistik resurs yaratishning eng maqbul usuli. Tarjima

xotirasi muhiti yordamida ikki tildagi gaplarning o‘zaro muqobillik (alignment) holati. Ushbu uskunalar yordamida tarjimon “tarjima xotirasi” bankini yaratadi natijada, professional tarjimon muayyan sohada tarjimoni amalga oshirishda tarjima qilingan matnlardan qayta foydalanish, avval tarjima qilingan segment birliklarni mos tartibga ajratish avtomatik tarzda amalga oshirilishi, o‘xshash tarjimalar yoki terminlarni ilova qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Tarjima uskunalari onlayn va kompyuter platformasiga moslashgan bo‘lib, ularning xizmatlari ayrimlari pulli va ayrimlari bepul. Kompyuter platformasi uchun pulli foydalanishga mo‘ljallangan Trados studio, memoQ, Wordfast, Memsources, Déjà Vu, Across, bepul xizmatlardan Omega T, Café TranEspresso, pulli onlayn xizmatlardan Memsources, Wordbee, XTM Cloud, tekin foydalanish imkoniyatiga ega Smartcat, Matecat va Wordfast Enywhere kabilar

**2-mashg‘ulot. Korpus texnologiyasi. Korpus taksonomiyasi.** Korpus yaratishda lingvistik instrumentlar. AndCons dasturi. Korpus umumiy va maxsus tipga ajraladi. Maxsus tipdagi korpuslar janr, uslub, davr va h.k.larga farqlansa, har ikki tipdagi korpus o‘z navbatida diaxron va sinxron shakliga ko‘ra ham shakllantirilishi mumkin. Diaxron korpus tilning davrlar osha qay darajada o‘zgarishga uchraganini tahlil qilsa, sinxron esa ayni jarayonda qo‘llanilayotgan nutqiy birliklarning qo‘llanilishi tahlilga olinadi. Bundan tashqari monolingval va parallel korpuslarga ko‘ra ham farqlanishi mumkin. Korpus lingvistikasining vazifalaridan biri lingvistik resurslarning alohida tipi bo‘lgan matn korpuslarining texnologik ishlanmalar bilan bog‘liq ravishda ana shu matnlarning bazada turli tasnifini yaratish.

**3-mashg‘ulot. Nutqiy sintezator. Praat dasturi bilan ishlash.** Insonning artikulyatsion apparati nutq tovushlarini hosil qiladi. Nutq apparati orqali biz fikrimizni ifodalashimiz uchun zarur bo‘lgan nutq tovushlarini talaffuz qilamiz. Har bir tovush akustik xususiyatga ega: nutqiy oqim (tezligi, baland-pastligi).

Nutq tovushlari ma'no farqlash, ma'no ajratish belgilariga ega. Shu boisdan ham ular biologik va fizik tovushlardan farqlanadi. Muayyan tovushlarning tartibli ketma-ketligi muayyan ma'noga va funksional mazmunga ega so'zni hosil qiladi. Ushbu texnologiya nutqni paydo bo'lish jarayoniga ko'ra fizika bilan, uni maqsadli yo'naltirish jarayoni psixologiyaga bog'liq. Endilikda nutq sintezatoridan foydalanilayotgan Google qidiruv tizimi yoki muloqot roboti (chatbox) akustik signallar asosida ishlamoqda. Tillarning turli-tuman xarakterga egaligi nutq sintezatorini o'rganish usullarini o'zgartiradi.

Matnni ovozlash tirish uchun ritm, urg'u, to'xtam ahamiyatga ega. Grafemalarni akustik holatga o'tkazishda statistik metod samarali usuldir. Endilikda nutq sintezatori kompyuter lingvistikasining boshqa yo'nalishlari: mashina tarjimasi, axborot qidiruvi tizimlarida ham qo'llanilmoqda. Mashina tarjimasining ovozli dasturi yoki ovoz orqali ma'lumotlarni qidirish kompyuter lingvistikasining innovatsion yangiliklaridan sanaladi.

Praat dasturi yordmida audio fayllarni matnga o'tkazish va korpus uchun annotatsiyalash imkonini beradi. Bunda har bir talaffuz qilingan so'zlarning intonatsiyasi va bo'inlarga ko'ra segmentlarga ajratadi. Umid qilamizki, akustik fonetika ham kompyuter lingvistikasining istiqbolli masalalardan biri sifatida rivojlanadi.

### O'QITISH SHAKLLARI

Ushbu modul bo'yicha quyidagi o'qitish shakllaridan foydalaniladi:

- masofadan o'qitish;
- ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar (ta'lim texnologiyalarini anglab olish, nazariy bilimlarni amaliyotga qo'llash);
- suhbatlar orqali tinglovchida muayyan muammoga munosabat bildirish qobiliyatini shakllantirish, undaadabiy ta'limga doir masalani eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish xususiyatini qaror topdirish;
- tinglovchilarni bahs-munozaralar paytida muammolar yechimi bo'yicha dalil va asosli argumentlar taqdim qilishga, o'z fikrini asoslashga o'rgatis

**II. MODULNI O‘QITISHDA  
FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM  
METODLARI**





### “SWOT-tahlil” metodi.

**Metodning maqsadi:** mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo‘llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

<b>S (strength)</b>	- kuchli tomonlari
<b>W (weakness)</b>	- zaif, kuchsiz tomonlari
<b>O (opportunity)</b>	- imkoniyatlari
<b>T (threat)</b>	- to‘siqlar

**Namuna:** Mumtoz matnlar bo‘yicha struktural tahlil imkoniyatlarini jadvalga tushiring.

<b>S</b>	Mumtoz matnlar bo‘yicha struktural tahlilning kuchli tomonlari.	Maksimal aniqlik bilan har tomonlama xolis xulosa chiqarishi.
<b>W</b>	Mumtoz matnlar bo‘yicha struktural tahlilning kuchsiz tomonlari.	Badiiy matndagi tuyg‘ular tahlilini to‘la amalga oshirib bo‘lmaydi.
<b>O</b>	Mumtoz matnlar bo‘yicha struktural tahlil (ichki) imkoniyatlari.	Shakl va mundarijaning har bir komponentlarini jiddiy mikrotahlildan o‘tkaziladi.
<b>T</b>	To‘siqlar (tashqi).	Struktural poetika bo‘yicha tinglovchilarning nazariy bilimlari yetishmasligi.

## “Xulosalash” (Rezyume, Veer) metodi

**Metodning maqsadi:** Bu metod murakkab, ko‘p tarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo‘yicha o‘rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o‘quvchilarning mustaqil g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “Xulosalash” metodidan ma’ruza mashg‘ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va ko‘chma mashg‘ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

### *Metodni amalga oshirish tartibi:*



trener-o‘qituvchi ishtirokchilarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratadi;



trening maqsadi, shartlari va tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirgach, har bir guruhga umumiy muammoni tahlil qilinishi zarur bo‘lgan qismlari tushirilgan tarqatma materiallari



har bir guruh o‘ziga berilgan muammoni atroflicha tahlil qilib, o‘z mulohazalarini tavsiya etilayotgan sxema bo‘yicha tarqatmaga yozma bayon qiladi;



navbatdagi bosqichda barcha guruhlar o‘z taqdimotlarini o‘tkazadilar. Shundan so‘ng, trener tomonidan tahlillar umumlashtiriladi, zaruriy axborotlar bilan to‘ldiriladi va mavzu

Badiiy tahlil tizimlari					
Germenevtik tahlil (talqin)		Struktural (tarkibiy) tahlil		Lisoniy tahlil	
afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi
<b>Xulosa:</b>					

### “Keys-studi” metodi

“**Keys-stadi**” - inglizcha soʻz boʻlib, (“case” – aniq vaziyat, hodisa, “stadi” – oʻrganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni oʻrganish, tahlil qilish asosida oʻqitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921-yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini oʻrganishda foydalanish tartibida qoʻllanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari oʻz ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qayerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

#### “Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
<b>1-bosqich:</b> Keys va uning axborot taʼminoti bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"> <li>– yakka tartibdagi audiovizual harakat;</li> <li>– keys bilan tanishish (matnli, audio yoki media shaklda);</li> <li>– axborotni umumlashtirish;</li> </ul>

	<ul style="list-style-type: none"> <li>– axborot tahlili;</li> <li>– muammolarni aniqlash</li> </ul>
<b>2-bosqich:</b> Keysni aniqlashtirish va o‘quv topshirig‘ni belgilash	<ul style="list-style-type: none"> <li>– individual va guruhda ishlash;</li> <li>– muammolarni dolzarblik ierarxiasini aniqlash;</li> <li>– asosiy muammoli vaziyatni belgilash</li> </ul>
<b>3-bosqich:</b> Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o‘quv topshirig‘ining yechimini izlash, hal etish yo‘llarini ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"> <li>– individual va guruhda ishlash;</li> <li>– muqobil yechim yo‘llarini ishlab chiqish;</li> <li>– har bir yechimning imkoniyatlari va to‘siqlarni tahlil qilish;</li> <li>– muqobil yechimlarni tanlash</li> </ul>
<b>4-bosqich:</b> Keys yechimini yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<ul style="list-style-type: none"> <li>– yakka va guruhda ishlash;</li> <li>– muqobil variantlarni amalda qo‘llash imkoniyatlarini asoslash;</li> <li>– ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash;</li> <li>– yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish</li> </ul>

**Keys.** Kichikroq badiiy (she‘riy) matnni tahlil qilish uchun ko‘rsatkich ishlab chiqiladi, mazkur metodning ijobiy va salbiy tomonlari qiyoslanadi va xulosa chiqariladi.

### ***Keysni bajarish bosqichlari va topshiriqlari:***

- Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang (individual va kichik guruhda).
- Mobil ilovani ishga tushirish uchun bajariladigan ishlar ketma-ketligini belgilang (juftliklardagi ish).

## “FSMU” metodi

**Texnologiyaning maqsadi:** Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o‘zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma’ruza mashg‘ulotlarida, mustahkamlashda, o‘tilgan mavzuni so‘rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg‘ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

### Texnologiyani amalga oshirish tartibi:

- qatnashchilarga mavzuga oid bo‘lgan yakuniy xulosa yoki g‘oya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog‘ozlarni tarqatiladi;
- ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhiiy tartibda taqdimot qilinadi.

<b>F</b>	- fikringizni bayon eting
<b>S</b>	- fikringizni bayoniga sabab ko‘rsating
<b>M</b>	- ko‘rsatgan sababingizni isbotlab misol keltiring
<b>U</b>	- fikringizni umumlashtiring

FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishiga asos bo‘ladi.

**Namuna:Fikr:** “Struktural tahlil asosida mavjud matnni mantiqan qismlarga ajratish va uni yig‘ish yotadi”.

**Topshiriq:** Mazkur fikrga nisbatan munosabatingizni FSMU orqali tahlil qiling.

### “Assesment” metodi

**Metodning maqsadi:** Mazkur metod ta'lim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o'zlashtirish ko'rsatkichi va amaliy ko'nikmalarini tekshirishga yo'naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta'lim oluvchilarning bilish faoliyati turli yo'nalishlar (test, amaliy ko'nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo'yicha tashxis qilinadi va baholanadi.

**Metodni amalga oshirish tartibi:** “Assesment” lardan ma'ruza mashg'ulotlarida talabalarning yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o'rganishda, yangi ma'lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg'ulotlarda esa mavzu yoki ma'lumotlarni o'zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o'z-o'zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o'qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o'quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo'shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

#### Namuna:

Har bir katakdagi to'g'ri javob 5 ball yoki 1-5 balgacha baholanishi mumkin.





**“Struktura” deganda nimani tushunasiz?**

- A. Yunoncha soʻz boʻlib, tarkib maʼnosini anglatadi.
- B. Inglizcha soʻz boʻlib, tahlil maʼnosini anglatadi.
- C. Yunoncha soʻz boʻlib, talqin degan maʼnoni anglatadi.
- D. Lotincha soʻz boʻlib, badiiy asar matnini anglatadi



**“Struktural tahlil” qanday tahlil turi?**

- A. “Struktural tahlil” badiiy tahlil turi.
- B. “Struktural tahlil” ilmiy tahlil turi.
- C. “Struktural tahlil” tanqidiy tahlil turi.
- D. “Struktural tahlil” badiiy asarni tarkilash orqali tahlil qilishdir.



**“Struktural metod”ning lugʻaviy maʼnosini bilasizmi?**

- A. “Struktura – tarkib”, “metod - fan yoʻnalishi” kabi lugʻaviy maʼnoni anglatadi.
- B. “Struktura - tarkib”, “metod – ijod turi” kabi lugʻaviy maʼnoni anglatadi”
- C. “Struktura – tahlil”, “metod - fan yoʻnalishi” kabi lugʻaviy maʼnoni anglatadi.
- D. “Struktura - talqin”, “metod – ilmiy izlanish” kabi lugʻaviy maʼno beradi.



***Badiiy matn ilmiy matndan qaysi jihatlari bilan farqlanadi?***

- A. Badiiy matn obraz yaratish orqali shakllantiriladi, ilmiy matnda tushuncha va atamalar asosida fikr yuritiladi.*
- B. Badiiy matn roman va hikoyalar matni, ilmiy matn esa dissertatsiyadir.*
- C. Badiiy matn ijodiy tasavvur orqali yaratiladi,*

**“Tushunchalar tahlili” metodi**

**Metodning maqsadi:** mazkur metod talabalar yoki qatnashchilarni mavzu boʻyicha tayanch tushunchalarni oʻzlashtirish darajasini aniqlash, oʻz bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu buyicha dastlabki bilimlar darajasini tashxis qilish maqsadida qoʻllaniladi. Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar mashgʻulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- oʻquvchilarga mavzuga yoki bobga tegishli boʻlgan soʻzlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda);

- o‘quvchilar mazkur tushunchalar qanday ma’no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo‘llanilishi haqida yozma ma’lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga yetgach o‘qituvchi berilgan tushunchalarning to‘g‘ri va to‘liq izohini o‘qib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- har bir ishtirokchi berilgan to‘g‘ri javoblar bilan o‘zining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o‘z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

**Namuna:** “Moduldagi tayanch tushunchalar tahlili”

<b>Tushunchalar</b>	<b>Sizningcha bu tushuncha qanday ma’noni anglatadi?</b>	<b>Qo‘shimcha ma’lumot</b>
Badiiy matn	Nobadiiy matndan hissiy-impresiv va nutqning bo‘yoqdorligi va obrazli tafakkur bilan farq qiladi	
Struktura	Tarkib. Badiiy matn tarkibi (qurilishi), uning qismlarga ajratib tahlil qilish	
Badiiy timsol (obraz)	Aniq va shu bilan birga umumlashtirish xarakteriga ega bo‘lgan badiiy manzara yoki siymo yaratish	
Adabiy tur	Matnni ifoda xususiyatiga ko‘ra farqlash	
Adabiy janr	O‘z ifoda shakliga, vazn birliklariga va qofiyalanish tizimiga ega bo‘lgan mustaqil shakliy ifodalanish	
Ritm, Ritmika	Bir maromda takrorlanib turuvchi nutqiy harakat va uni o‘rganuvchi soha	
Uslub	Muallif ijodining yoki badiiy matnning bektakror o‘ziga xosligi	

**Izoh:** Ikkinchi ustunchaga qatnashchilar tomonidan fikr bildiriladi. Mazkur tushunchalar haqida qo‘shimcha ma’lumot glossariyda keltirilgan.

## “Venn diagrammasi” metodi


**Metodning maqsadi:** Bu metod grafik tasvir orqali o‘qitishni tashkil etish shakli bo‘lib, u ikkita o‘zaro kesishgan aylana tasviri orqali ifodalanadi. Mazkur metod turli tushunchalar, asoslar, tasavvurlarning analiz va sintezini ikki aspekt orqali ko‘rib chiqish, ularning umumiy va farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi.

### Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar ikki kishidan iborat juftliklarga birlashtiriladi va ularga ko‘rib chiqilayotgan tushuncha yoki asosning o‘ziga xos, farqli jihatlarini (yoki aksi) doiralari ichiga yozib chiqish taklif etiladi;
- navbatdagi bosqichda ishtirokchilar to‘rt kishidan iborat kichik guruhlariga birlashtiriladi va har bir juftlik o‘z tahlili bilan guruh a‘zolarini tanishtiradilar;
- juftliklarning tahlili eshitilgach, ular birgalashib, ko‘rib chiqilayotgan muammo yohud tushunchalarning umumiy jihatlarini (yoki farqli) izlab topadilar, umumlashtiradilar va doirachalarning kesishgan qismiga yozadilar.

### Namuna:

**Ifoda shakllari bo‘yicha (she‘riy va nasriy nutq).**



## “Blits-o‘yin” metodi

**Metodning maqsadi:** tinglovchilarda tezlik, axborotlar tizmini tahlil qilish, rejalashtirish, prognozlash ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Mazkur metodni baholash va mustahkamlash maksadida qo‘llash samarali natijalarni beradi.


### Metodni amalga oshirish bosqichlari:

1. Dastlab ishtirokchilarga belgilangan mavzu yuzasidan tayyorlangan topshiriq, ya’ni tarqatma materiallarni alohida-alohida beriladi va ulardan materialni sinchiklab o‘rganish talab etiladi. Shundan so‘ng, ishtirokchilarga to‘g‘ri javoblar tarqatmadagi “yakka baho” kolonkasiga belgilash kerakligi tushuntiriladi. Bu bosqichda vazifa yakka tartibda bajariladi.
2. Navbatdagi bosqichda trener-o‘qituvchi ishtirokchilarga uch kishidan iborat kichik guruhlariga birlashtiradi va guruh a‘zolarini o‘z fikrlari bilan guruhdoshlarini tanishtirib, bahslashib, bir-biriga ta’sir o‘tkazib, o‘z fikrlariga ishonirish, kelishgan holda bir to‘xtamga kelib, javoblarini “guruh bahosi” bo‘limiga raqamlar bilan belgilab chiqishni topshiradi. Bu vazifa uchun 15 daqiqa vaqt beriladi.
3. Barcha kichik guruhlar o‘z ishlarini tugatgach, to‘g‘ri harakatlar ketma-ketligi trener-o‘qituvchi tomonidan o‘qib eshittiriladi, va o‘quvchilardan bu javoblarni “to‘g‘ri javob” bo‘limiga yozish so‘raladi.
4. “To‘g‘ri javob” bo‘limida berilgan raqamlardan “yakka baho” bo‘limida berilgan raqamlar taqqoslanib, farq bo‘lsa “0”, mos kelsa “1” ball qo‘yish so‘raladi. Shundan so‘ng “yakka xato” bo‘limidagi farqlar yuqoridan pastga qarab qo‘shib chiqilib, umumiy yig‘indi hisoblanadi.
5. Xuddi shu tartibda “to‘g‘ri javob” va “guruh bahosi” o‘rtasidagi farq chiqariladi va ballar “guruh xatosi” bo‘limiga yozib, yuqoridan pastga qarab qo‘shiladi va umumiy yig‘indi keltirib chiqariladi.
6. Trener-o‘qituvchi yakka va guruh xatolarini to‘plangan umumiy yig‘indi bo‘yicha alohida-alohida sharhlab beradi.

7. Ishtirokchilarga olgan baholariga qarab, ularning mavzu bo'yicha o'zlashtirish darajalari aniqlanadi.

**Struktural tahlil ketma-ketligini aniqlash. O'zingizni tekshirib ko'ring!**

Harakatlar mazmuni	Yakka baho	Yakka xato	To'g'ri javob	Guruh bahosi	Guruh xatosi
Matnning tashqi strukturasi					
Matnning ichki qurilishi					
Matni o'z yozuvida o'qish tajribasi					
Matni o'z tilida o'qib tushunish (lug'at va izoh)					
Matn qismlarining dastlabki talqini					
Qismlarga ajratilib tahlil qilingan matnning mantiqiy butunligi					



Grafik organayzer talabalar tomonidan o'zlashtirilgan o'zaro yaqin nazariy bilim, ma'lumot yoki dalillarni qiyosiy tahlil etishga yordam beradi. Undan muayyan bo'lim yoki boblar bo'yich yakuniy darslarni tashkil etishda foydalanish yanada samaralidir.

Uni qo'llash bosqichlari quyidagilardan iborat:

- 1 • Talabalar ikki guruhga bo'linadi
- 2 • Yozuv taxtasiga topshiriqni bajarish mohiyatini aks ettiruvchi sxema chiziladi
- 3 • Har bir guruhga o'zlashtirilayotgan mavzu (bo'lim, bob) yuzasidan alohida topshiriq beriladi
- 4 • Topshiriqlar bajarilgach, guruh a'zolari orasidan liderlar tanlanadi
- 5 • Liderlar guruh a'zolari tomonidan bildirilgan fikrlarni umumlashtirib, yozuv taxtasida aks etgan diagrammani to'ldiradi



### **III. NAZARIY MASHG‘ULOT MAZMUNI**



## 1-MAVZU: TIL TEXNOLOGIYASI KURSIGA KIRISH.

### REJA:

1. *Fanning maqsadi va vazifasi*
2. *Til texnologiyasining nazariy va amaliy asoslari*
3. *Fanning boshqa sohalar bilan aloqasi (matematika, psixologiya, informatika)*

**Tayanch tushunchalar:** *til texnologiyasi, kompyuter lingvistikasi, mashina tarjimasi, NLP, avtomatik tahrirlash, modellashtirish, matematik mantiq, text recognition, savol-javob, axborot qidiruv tizimi.*

**Fanning maqsadi va vazifasi.** Texnologiya turlari. Til va nutq texnologiyasini qayta ishlashda kompyuter lingvistikasi va NLP. Texnologiyasini qayta ishlashda kompyuter lingvistikasi va NLP. **Til texnologiyasi** bu kompyuter texnologiyalari yordamida til bilan bog‘liq masalalarni o‘rganuvchi sohalar kesimida yangi paydo bo‘lgan fan hisoblanadi. Ushbu kurs o‘z ichiga kompyuter lingvistikasi va NLPlarni qamrab oladi.

Til texnologiyasi (inson tili texnologiyasi) kompyuter va elektron asboblarning kishilar tomonidan tuzilgan tabiiy matn va nutqiga muayyan darajada javob bera oladigan, moslashish yoki jarayonlarni analiz qila oluvchi bilimlar yig‘indisi hisoblanadi. U Kompyuter lingvistikasi, Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) va Nutq texnologiyasi kabi qismlardan iborat<sup>1</sup>.

Til texnologiyasi 40 yil davomida tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) sohasida erishilgan ilmiy natijalarning 1990-yillarga kelib sun‘iy intellekt tarkibida shakllangan sohasidir<sup>2</sup>.

Til texnologiyasining fan sifatida shakllanishi alohida ahamiyatga molik. Negaki, fan lingvistika, matematika, statistika, kompyuter texnologiyalari bilan bog‘liqdir. Til tafakkur bilan bog‘liq ekan uning texnika bilan yoki aniq fanlar

<sup>1</sup> [https://en.wikipedia.org/wiki/Language\\_technology](https://en.wikipedia.org/wiki/Language_technology)

<sup>2</sup> <https://www.mq.edu.au/research/research-centres-groups-and-facilities/innovative-technologies/centres/centre-for-language-technology-clt/information/what-is-language-technology>

bilan bog'liqligini tushunishda uning nazariy ildizlarini o'rganish taqozo etiladi. Dastlab 1952-yili Massachusetts texnika universitetida Mashina tarjimasini bo'yicha o'tkazilgan ilk ilmiy-amaliy konferensiya hamda 1954-yil 7-yanvarda Nyu-Yorkdagi Jorjtaun universiteti bilan IBM kompaniyasi hamkorligida birinchi IBM II mashina tarjimasini dasturining amalda sinovdan o'tkazilganligi Kompyuter lingvistikasining yaratilishiga omil bo'lgan muhim voqealik sifatida qarash mumkin.

Til texnologiyasi paydo bo'lishiga asos bo'lgan qo'shimcha omillardan biri til va nutqni qayta ishlash uchun ehtimollik algoritmlarning rivojlantirilishi bo'ldi. Shannonning ushbu masalalarga bag'ishlangan ilmiy ishlarida muloqot kanali va tilning ma'lumot hajmini o'lchash uchun termodinamikaning entropiya konseptini joriy etilganligidir. Olim ehtimollik nazariyasidan foydalanib ingliz tilining birinchi entropik hajmini aniqlab bera olgan. Ovozli spektrograf instrumental fonetika asosida rivojlantirildi. Bu esa dastlabki urinishlar sifatida nutqiy holatni avtomatik tushunish bosqichiga ko'tara oldi. 1952-yilda Bell laboratoriya tadqiqotchilari tomonidan so'zlayotgan muayyan kishining 10 ta raqamdan ayrimlarini taniy oladigan statistik tizimi yaratildi.

**Til texnologiyasining nazariy va amaliy asoslari.** Ushbu fan simvolik va ehtimollik nazariyasiga asoslangan ikki paradigma asosida rivojlana bordi. Simvolik paradigma ikki yo'nalishda tadqiq etildi: formal til nazariyasiga asoslangan Chomskiy ta'limoti hamda sintaktik analiz (parsing) algoritmi va dinamik dasturlash yordamida pastdan yuqoriga (bottom-up) va yuqoridan pastga (top-down) metodlarga bag'ishlangan lingvistik va kompyuter sohasiga oid ishlarda o'z ifodasini topdi. To'liq sintaktik analiz tizimi Zelig Xarrisning transformatsiya va diskurs analiz proyeksi Pensilvaniya universitetida 1958-59-yillar ichida amalga oshirilgan. Ikkinchi yo'nalish esa sun'iy intellekt sifatida shakllandi. 1956-yil yoz oyida Mak Karti, Marvin Minskiy, Klavd Shennon va Nazaniel Rochesterlar ikki oylik seminarda ishtirok etishib, sun'iy intellekt terminini qo'llashga kelishib oldilar. Sun'iy intellekt tadqiqotchilarni ehtimollik

va statistik algoritmgacha asoslangan ishlarining juda kichik qismini tashkil etsa-da, yangi sohaning asosiy markazi Nivel va Simyonning Mantiqiy nazariyasi va umumiy muammolarni hal qilishga qaratildi. Shunday qilib tabiiy tilni tushunuvchi tizim yaratildi. 1960-yillarning oxirigacha formal mantiqiy tizim rivojlantirildi.

Bu ehtimollik paradigma statistikasi va elektr muhandisligida keng tarqaldi. Bayesov metodi 1950-yillarning oxirida optik xarakterdagi tushunish muammosini hal etish uchun qo'llanila boshlandi. Bledsov va Brovning (1959) katta hajmdagi lug'at va kompyuterlashtirilgan matnlarni tanish (**text recognition**) uchun Bayesov tizimini joriy etdilar.

1960-yillarda dastlabki transformatsion metod asosida tabiiy tilni qayta ishlashning jiddiy tekshiruvchi psixologik modeli yuzaga chiqdi. Shu bilan birga dastlabki internet tarmog'idagi korpus: turli janrga oid manbalar (gazeta, badiiy, ilmiy, roman va boshq.)dan olingan 500 ta yozma matnlar jamlanmasidan 1 mln. so'zlarning Amerika ingliz tilisi bo'yicha BROWN korpusi yaratildi.

1970-1983-yillariga to'g'ri keladi. Bu davrda til va nutqni qayta ishlash va ko'plab tadqiqotlar soha bo'yicha rivojlanish bosqichiga kirdi. Nutqni tanish algoritmlarini rivojlantirishda ehtimollik paradigmasi muhim rol o'ynadi. Ayniqsa, Yashirin Markov Modelidan foydalanish hamda Jelinek, Bal, Mercer va ularning IBMdagi hamkorlari Tomas J. Watson tomonidan shovqinli kanal modeli va dekodlash rivojlantiriladi. Kolmerauer va uning hamkasblari tomonidan Q-tizimli va transformatsion grammatikada mantiqqa asoslangan paradigmalardan foydalanila boshlandi.

**Fanning boshqa sohalar bilan aloqasi (matematika, psixologiya, informatika).** Shu davrda tabiiy tilni qayta ishlash jarayoni Terri Vinogradning SHRDLU tizimi orqali qayta rivojlantirildi. Bu dastur tabiiy tildagi matnni qabul qila olish imkoniyatiga egaligi bilan ahamiyatlidir. Xallideyning sistem grammatikasiga asoslangan kengaytirilgan ingliz tili grammatikasini qurish bo'yicha (o'z davrida) dastlabki urinishlardan biri bo'lgan. Vinogradov modeli

semantika va diskurs modelni yaxshi tushuna oladigan tahlil muammosini aniqlashtirishga yordam berdi. Roger Shank va uning hamkasblari tomonidan inson konseptual bilimi va inson xotirasiga asoslangan tilni tushuna oladigan bir nechta dasturlar yaratdilar.

Mantiqqa asoslangan va tabiiy tilni qayta ishlash paradigmalari LUNAR deb nomlangan savol-javob tizimida semantik ifoda sifatida qoʻlanilgan predikativ mantiq birlashtirildi. (Woods, 1967, 1973). Diskursni modellashirish paradigmasi diskursning toʻrt asosiy maydoniga qaratildi.

Empirizm va avtomatlashgan modellarning vujudga kelish davri 1983-1993-yillarni oʻz ichiga oladi. Bu davrga kelib 1950-yillar oxiri va 1960-yillar boshida Chomskiyning formal grammatikasiga qarshi boʻlgan ikki model yana oʻrganila boshlandi. Nutqni tanishda ehtimollik modellarini qoʻllash Tomas Vetson tomonidan olib borildi. Ehtimollik motodlari va shunga oʻxshash maʼlumotlarni boshqaruv tizimlari semantika bilan bogʻliq koʻpmaʼnolik kabi masalalarni yechishda foydalanildi. Shuningdek, turli shakldagi matnlarning korpuslari yaratildi. Bu resurslarning amalda qoʻllanilishi semantik tahlil, mashina tarjimasini, savol javob, maʼlumotlarni boyitish kabi bir qator lingvistik masalalarni echishda yordam berdi.

Oʻtgan asrning 60-80-yillarida mashina tarjimasini jihatlarini ishlab chiqishga yoʻnaltirilgan koʻplab ilmiy tadqiqotlar yuzaga keldi. Taʼkidlanganidek, mazkur tadqiqotlar rus tili boʻyicha jahon kompyuter tarmoqlarida maʼlumotlar bazasi yaratilishiga va buning natijasi sifatida rus tilidagi matnlarni avtomatik tarzda boshqa tillarga tarjima qiluvchi dasturlarning vujudga kelishi uchun asos boʻldi. Oʻzbek tilida ham shu kabi maʼlumotlar bazasini yaratish bugungi kundagi eng dolzarb vazifadir.

Rus kompyuter tilshunosligida taraqqiy qilgan yana bir yoʻnalish matnlarni avtomatik tahrirlovchi yoʻnalishdir. Mazkur yoʻnalishda ilmiy tadqiqotlar olib borgan olimlar sirasiga R.R.Kotov, V.E.Berzon, V.G.Britvin, I.A.Melchuk,


L.I.Belyayeva, V.A.Chijakovskiy, G.G.Belonogov, I.S.Duganova, A.B.Kuznetsov kabilarni kiritish mumkin.<sup>3</sup>

Ushbu olimlarning asosiy xizmati shundaki, ular avtomatik tahrir qiluvchi dasturlar uchun lingvistik ta'min yaratib berishgan. Buning natijasida kompyuterlardagi ruscha matnlarni tahrirlovchi dasturlar ishlab chiqilgan. Bu dasturlar bugungi kunda barcha kompyuterlarda mavjud. Ya'ni bunda noto'g'ri yozilgan so'zning tagiga qizil chiziq chiziladi, so'z to'g'ri yozilganidan so'ng chiziq yo'qoladi. Ko'rinadiki, bu dastur asosan imloni tekshirishga mo'ljallangan, unda uslubiy xatolarni aniqlash ko'zda tutilmagan. Kelajakda yaratiladigan dasturlar, umid qilamizki, avtomatik tahrirning bu jihatlarini ham e'tibordan chetda qoldirmaydi.

Kompyuter lingvistikasi kompyuter va lingvistika fanlarining o'zaro integrallashuvi sanalsa-da, boshqa fanlar bilan bevosita aloqador sanaladi. Zotan o'rganilyotgan obyekt til ekan, til bilan bog'liq barcha hodisalar, o'sh hodisalarga izoh beruvchi sohalar orqali berilar ekan boshqa yondosh sohalar bilan shug'ullanish taqozo etiladi. Shu boisdan KL va psixologiya, KL va fizika kabi tadqiqot yo'nalishlari vujudga keldi.

---

<sup>3</sup> **Котов Г.Г.** Лингвистические аспекты автоматизированных систем управления. –М.: Наука, 1977. **Шу муал.** Лингвистические вопросы алгоритмической обработки сообщений. – М.: Наука, 1983. **Шу муал.** Прикладная лингвистика и информационная технология. – М.: Наука, 1987. **Котов Г.Г., Якунин Б.В.** Язык информационных систем. –М., 1989; **Котов Г.Г.** Оптимизация речевого воздействия. – М.: Наука, 1990; **Берзон В.Е.** и др. О разработке подсистемы редактирования выходного текста в рамках системы МП// Проблемы внутренней динамики речевых норм. – Минск, 1992. -С.169-174; **Бритвин В.Г.** Прикладное моделирование синтагматической семантики научно - технического текста (на примере автоматического индексирования). КД.- М.: МГУ, 1983; **Мельчук И.А.** Порядок слов при автоматическом синтезе русского слова (предварительные сообщения) // Научно –техническая информация. 1985, №12. -С.12-36; **Беляева Л.И., Чижаковский В.А.** Тезарус в системах автоматической переработки текста. – Кишинев, 1983; **Белоногов Г.Г., Котов Г.Г.** Автоматизированные информационно – поисковые системы. – М., 1968; **Белоногов Г.Г., Дуганова И.С., Кузнецов А.Б.** Экспериментальная система автоматизированного обнаружения и исправления ошибок в тексте // НТИ. Серия 2 , 1984 , №3. -С.20-25.



#### **NAZORAT SAVOLLARI:**

1. Fanning maqsadi va vazifasi nimalardan iborat?
2. Til texnologiyasining nazariy va amaliy asoslari qanday?
3. Fanning boshqa sohalar bilan aloqasi (matematika, psixologiya, informatika) haqida gapiring.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. David Spencer “Gateway”, Students book, Macmillan 2012.
2. English for academics. Cambridge University Press and British Council Russia, 2014. Hook 1, 2.
3. English for Specific Purposes. All Oxford editions. 2010, 204.
4. Karimova V.A., Zaynutdinova M.B. Nazirova E.Sh., Sadikova Sh.Sh. Tizimli tahlil asoslari. – T.: “O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti”, 2014. – 192 b.
5. Lindsay Clandfield and Kate Pickering “Global”, B2, Macmillan. 2013. – 175 pp.
6. Lutfullayeva D.E. Associative dictionaries as a mirror of reflecting native speakers’ word stock // Современные научные исследования и разработки. – Москва: “Олимп”, 2017. – №. 2. – P.10-13.



7. Lutfullayeva D.E. The role of associative dictionaries in the study of the problems of human phenomenon // Lang Lit An International Peer-Reviewed Open Access Journal. – India, 2017. February. – P.191-200.

**2-MAVZU:  
KOMPYUTER LEKSIKOGRAFIYASI. TEZAURUS.  
TEZAURUS YARATISHNING LINGVISTIK MASALALARI.**

**REJA:**

- 1. Kompyuter leksikografiyasida ma'lumotlar bazasi**
- 2. Tezaurus va ontologiya tushunchalari**
- 3. Semantik to'r va ma'lumotlar bazasi bilan ishlash**

**Tayanch tushunchalar:** *Semantik to'r va ma'lumotlar bazasi bilan ishlash, ontologiya, semantik munosabatlarni yaratishda konsept tushunchasikompyuter leksikografiyasi, korpus, terminologiya, tezaurus, ontologiya, elektron lug'at, ma'lumotlar bazasi, wordnet, giponim, sinonimlar.*

**Kompyuter leksikografiyasida ma'lumotlar bazasi.** Globallashuv jarayonida jamiyatda qanday o'zgarishlarga qaramay, kishilar muloqotining kaliti bo'lgan tilning o'rni oshib bormoqda. Shu bois muloqotning yanada optimal usullarini topishda olimlar ko'plab takliflar bildirishmoqda. Kommunikatsiya uchun yagona universal tilni yaratish prinsiplarini o'rganuvchi Interlingvistika fani yuzaga kelgan bo'lsa, boshqa tomondan barchaga tushunarli bo'lishi uchun sun'iy tillarning yaratilishi ham mana shu yo'ldagi sa'yi harakatlardan biri bo'ldi, desak yanglishmagan bo'lamiz.

Shu o'rinda kompyuter texnologiyalarning ham jadal sur'atlarda takomillashib jamiyatning barcha tarmoqlarida o'z o'rnini topayotgani esa, ko'plab sohalarda kompyuter bilan ishlash ehtiyojini yaratdi, bu jarayon, shubhasiz, yangi yo'nalishlarga asos bo'ldi. Mobil qurilmalar orqali istalgan vaqtda foydalanish imkoniyati mavjudligi elektron lug'atlarning turli




takomillashgan variantlarini vujudga kelishiga hamda kompyuter leksikografiyasining rivojlanishiga omil bo'ldi. Bunday ijtimoiy voqealik negizida fanda erishilgan samarali mehnatlar bilan bir qatorda kunning dolzarb ehtiyojlari yotganligini ko'rish mumkin. Kompyuter leksikografiyasi (KL) kompyuter lingvistikasining muayyan yo'nalishi sifatida kompyuter lug'atlarini yaratish, lingvistik ma'lumotlar bazasi va leksikografik masalalarni dasturlash kabi vazifalarni qamrab oladi. Ayrim manbalarda KL leksikografik manbalarni olish, ular bilan bog'liq lingvistik ma'lumotlarni berilganlar bazasiga yozish, leksikografik birliklarni tahrirlash kabi masalalarni kompyuter metodlari hamda uskunalari yordamida foydalanish soha sifatida qaraladi.

Kompyuter va lug'atshunoslik o'rtasidagi o'zaro muvofiqlashuv o'tgan asrning 60-yillariga o'z ifodasini topdi. Bu yillarda Brown korpusi, 1978 yilda avtomatik tekshiruvchi hamda tilni qayta ishlash uchun maxsus kodlangan Zamonaviy ingliz tili Longman lug'ati (Longman Dictionary of Contemporary English) yaratildi.

Lug'atlarning tavsiflanishi uch aspektga ko'ra ajratiladi:

- lug'atning yaratilishiga ko'ra maqsad va vazifalari;
- lug'atda tavsiflangan matnlar;
- foydalanuvchilarning kategoriyasi.



An'anaviy va kompyuter leksikografiyasining asosiy vazifalariga lug'atning tuzilishini aniqlash hamda lug'atdagi maqolalarning holati va strukturasi tashkil etish kabilar kiradi.

An'anaviy lug'atda u yoki bu so'zlarning tuzilish kompozitsiyasi aks etgan izohlar qay holatda berilishi qamrab olinsa, elektron (avtomatik, kompyuter) holatdagi lug'atni yaratish prinsiplariga ko'ra foydalanuvchilar uchun maxsus kompyuter formatida yoki muayyan tarkibiy qism dasturi sifatida yaratish masalalari nazarda tutadi (masalan, mashina tarjimasi). Shu bilan birga foydalanuvchining undan qay tarzda qo'llashiga ko'ra, *elektron lug'at* hamda matnni qayta ishlovchi dastur uchun *avtomatik lug'atga* farqlanadi. Foydalanuvchiga mo'ljallangan avtomatik lug'atlar kompyuter versiyasi uchun mo'ljallangan bo'ladi. Ularning sirasiga ayrim lug'atlarni keltirishimiz mumkin:

- Ingliz tilining Oksford lug'ati ([www.oed.com](http://www.oed.com))
- Ingliz tilining avtomatik izohli lug'ati Collins ([www.mycobuild.com](http://www.mycobuild.com))
- Yu.D. Apresyan va E.M. Mednikovaning "Yangi katta hajmli inglizcha-ruscha" lug'atining avtomatik varianti (<http://eng-rus.slovaronline.com>)
- Ojegov online lug'ati (<http://slovarozhegova.ru>)

Ma'lumotlar qidirish, avtomatik referatlash va mashina tarjimasiga mo'ljallangan avtomatik lug'atlar foydalanuvchi uchun yaratilgan avtomatik lug'atlardan shunisi bilan farqlanadiki, lug'atdagi maqolalarning strukturasi va interfeysiga ko'ra alohida ko'rinishga ega bo'ladi. Strukturalarning o'ziga xosligi dastur bilan bog'liq bo'lgan mavzularning lug'atga oid materiallari bilan bevosita u bilan bog'liq bo'lgan sohalarni ham qamrab olinganligidadir. Bunday lug'atning tarkibida muayyan maqolaga ilova tarzida bog'langan yuzlab ilovalarni keltirish mumkin. Leksikografiyaning turli sohalari morfologik, sintaktik, semantik sathlarni o'z ichiga qamrab olishi ham mumkin. Ma'lumki, an'anaviy lug'atlar mavzusiga ko'ra, ensiklopedik hamda lingvistik turlarga ajratiladi. Ularning tuzilishi esa quyidagi qismlardan iborat:


- Kirish, lug'atdagi maqolalar strukturasi haqida ma'lumot hamda lug'atdan

foydalanish prinsiplari berilishi;

- Lug‘at birliklaridan iborat bo‘lgan so‘zlik: morfema, leksema, so‘zshakllar yoki so‘z birikmasi;
- Har bir birlik lug‘atdagi maqolada o‘zining izohiga ega bo‘lishi;
- Ko‘rsatgichlar (indekslar);
- Adabiyotlar ro‘yxati;
- Shartli belgilar va alifbo.

Elektron lug‘atlarda yuqorida qayd etilgan qismlarning barchasi qamrab olinadi, ammo farqli jihatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi: har bir so‘zlik mos ravishda muayyan harfning massivida bo‘ladi, qolaversa, har bir so‘zlik gipperilovalarda taqdim qilinadi. Elektron lug‘atlardan foydalanish dasturiy ta‘minot sifatida (offline dictionary) hamda Internet tizimida (online dictionary) avtomatik qidiruv tarzida foydalaniladi, ularning har biri foydalanuvchining kuchini tejaydi. Shuningdek, “qog‘ozli” lug‘atlardan elektron lug‘atlar shunisi bilan farq qiladiki, ular multimediali va gippermatnli ham bo‘lishi mumkin. Bunday gipperilovalar lug‘atdagi istalgan maqolalarning elementi va lug‘atning dasturiy menyusiga biriktirilgan bo‘ladi. Bu esa foydalanuvchiga lug‘atga oid kerakli ma‘lumotlarni tezkorlik bilan qidirish imkoniyatini, bundan tashqari so‘zga ulangan sinonim, antonim, semantik guruhlar, turlanish va tuslanishga oid bo‘lgan grammatik paradigmalar haqidagi ma‘lumotlarni olish imkoniyatini yaratadi. Lug‘atdagi gipperilovalar, shuningdek, turli tipdagi lug‘atlar bilan bog‘lanish imkoniyatini ham yaratadi, shuning uchun onlayn yoki offlayn lug‘atlar lug‘atlarning majmuasi yoki portalidir. Foydalanuvchi so‘z ma‘nosi haqidagi kerakli ma‘lumotni olishda bir ilovaga murojaat etishi bilan boshqa lug‘atdagi izohlarni ham kiritish imkoniyatini beradi. Shuningdek, muayyan so‘zning maxsus lug‘atlardagi (terminologik lug‘atda) ma‘nosini bilish hamda uning shakli haqida lingvistik ma‘lumotga ham ega bo‘lish mumkin. Ayrim elektron lug‘atlar qo‘shimcha imkoniyatlarga ham ega bo‘ladi, masalan, ko‘ptillilik ABBYY lug‘ati Lingvox5 (©2008ABBYY) (ABBYY Lingvo Tutor)

o'qitish tizimiga ham egadir. Bugungi kunga kelib bunday lug'atlarning har xillari mavjud:



- 1) tarjimon;
- 2) repetitor tarjimon;
- 3) mashq yoki test bilan bilimni tekshirish mumkin bo'lgan tarjimon;
- 4) videoli;
- 5) rasimli;
- 6) yuqoridagilardan ba'zilar yoki barchasini o'zida qamrab oluvchi lug'at va h.k.

Lingvo lug'ati o'zining mukammalligi bilan

boshqa lug'atlardan farq qiladi. Birinchidan, u ko'ptillilik bo'lib yuqorida qayd etganlarimizning deyarli barchasini o'zida aks ettiradi. Qolaversa, so'zlikni uslubiy, adabiy va noadabiy ko'rinishlari hamda ularning so'z birikmasi tarzida ham alohida berilganiligi e'tiborga molik. Lug'atdagi tillarning tarkibida qozoq va turk tillari ham o'rin olgan, lekin o'zbek tili hanuz bu ro'yhatda qayd etilmagan. Zotan, o'zbek tarjimashunosligida mana shunday lug'atlarni yaratishdek ulkan vazifalar borligini ko'rsatadi. Tarjimon hamisha mukammal tuzilgan lug'atga ehtiyoj sezadi. Electron lug'atlar o'zining tezkorligi, qulayligi, ixchamligi, iqtisodiy jihatdan tejamkorligi bilan ajralib turadi. Uning ko'p funksiyali imkoniyatlari chet tilini o'rganishda o'ziga xos o'ringa ega. Negaki chet tilini o'rganishda nafaqat so'zlikni yodlash, balki uning talaffuz etilishi va muloqotda hamda boshqa birikmalar bilan birgalikda qo'llanilishining barcha uslublar doirasida ko'rib chiqish imkoniyatlariga egaligi bugungi fan-texnika asrining ajralmas qismi bo'lib borayotganini yana bir karra isbotlaydi. Shunday ekan kompyuter leksikografiyasining oldiga muhim vazifalar yotganligini bilishimiz mumkin. Shulardan eng muhimi o'zbek tilining Lingvosini yaratishdir.

Til juftliklari bilan birgalikda ana shu soʻzni eslab qolish uchun muayyan mavzuda tushuntiriladi. Lugʻat maqolalaridagi struktura quyidagi tipik va odatiy tuzilishga ega boʻlgan soʻz maydonlariga ega boʻladi:

- Leksik birlikni kiritish (vocabulary-vocabulary, soʻz hamda lemma, soʻz maydonlari hamda glossa);
- Grammatik maʼlumotlar maydoni;
- Uslubiy belgilar maydoni;
- Maʼnolar maydoni;
- Frazologizmlar maydoni;
- Etimologiya maydoni;
- Adabiyotlardagi namunalar va lugʻatdagi namunalar maydoni

Lugʻatdagi barcha birliklarni, albatta, fakultativ maydonlarga ajratish lozim. Turli lugʻatlar uchun eng muhim maydoni leksik birlikni kiritishdir qolganlari esa lugʻatning tipiga bogʻliq boʻladi. Masalan, izohli lugʻatda maʼno maydonlarining berilishi muhim boʻlsa, orfografik lugʻatlarda bunday maydonlar berilishi shart boʻlmaydi. Frazologik maydon esa deyarli izohli lugʻatda berilmaydi, lugʻatdagi namunalar yaratilgan lugʻatlarning asosida yotuvchi prinsiplarga bogʻliq boʻladi. Kompyuterdagi lugʻatlardagi soʻzliklarning maydonlari qogʻozli lugʻatlarni boyitishga xizmat qiladi. Chunki u katta hajmdagi xotira quvvati hamda raqamli maʼlumotlarni yuqori tezlikda qayta ishlashi bilan ahamiyatlidir. Agar foydalanuvchiga soʻzlarning faqat talaffuzi kerak boʻlsa, bu kabi lugʻatlarning izohi ham nomoyon boʻladi.

Lingvistik lugʻatlarning quyidagi koʻrinishlari mavjud:

- Izohli
- Tezaurus
- Ikki tilli tarjima lugʻatlar “Inglizcha-oʻzbekcha lugʻat” V.K.Myuller (1-nashri 1943 yilda nashrdan chiqqan)
- Assosiativ lugʻat “Zamonaviy rus tilining assosiativ lugʻati”
- Tarixiy-etimologik lugʻat

- Til shakllari lug‘ati (orfografik, orfoepik, morfem lug‘at)
- Nutqiy qo‘llanishiga ko‘ra lug‘atlar
- Ontroponimik va toponimik lug‘atlar
- Noan‘anaviy lug‘at. “Ruscha siyosiy metaforalar lug‘ati” (A.H.Баранов va Ю.Н.Караулов)

Elektron lug‘atlar yaratishning A.N. Baranov tasnifiga ko‘ra quyidagilar ajratiladi:

- 1 ) korpus matnlarini shakllantirish hamda so‘zlikni parallel tarzda yaratish;
- 2) namunalarning korpusini avtomatik shakllantirish;
- 3) maqolalarni yozish;
- 4) maqolalarni ma‘lumotlar bazasiga kiritish;
- 5) ma‘lumotlar bazasida maqolalarni tekshirib ko‘rish;
- 6) ma‘lumotlar bazasida matnlarni tekshirib ko‘rish;
- 7) lug‘atdagi matnlarni natijasini olish hamda maketini shakllantirish;
- 8) lug‘atni chop etish

So‘zlarni qayta ishlash uchun yaratiladigan lug‘atlar 1940-yillarga borib taqaladi. Negaki mashina tarjimasida ustida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar, avvalo, ma‘lumotlar bazasini yaratish muammolari ko‘tarib chiqilgan. Bugungi kunga kelib esa bunday maqsadlarga qaratilgan lug‘atlar matn ichidagi so‘zshakllari hamda ularning semantik ma‘nonalarini ifodalovchi kontekstologik konkordansini aniqlashni toqozo etmoqda. Xususan, Prinston cognitive laboratoriyasi mana shu yo‘nalishda bir qator tadbirlarni amalga oshirmoqda.

Leksikologiya tilshunoslikning barcha sathlari bilan bog‘liq bo‘lsa-da, lekin u alohida yo‘nalish sifatida rivojlanib bormoqda. Negaki, leksikologiyaning tarkibida leksikografiyaning rivojlanishida turli xil aspektlarni tahlil qilish taqozo etiladi.

Chet tilini o‘rganishda zamonaviy informatsion texnologiyalarning o‘rni beqiyos. Shu bois mashina tarjimasida va foydalanuvchi uchun elektron

lugʻatlarning bazasini alohida yaratish ehtiyoji mavjud. Zero, fan va texnologiyalarning taʼsirida tilimizda koʻplab yangi terminlar va neologizmlarning kirib kelayotganligi avtomatik lugʻatlarni har daqiqada boyitib borish ehtiyojini ham yaratadi.


**Tezaurus va ontologiya.** Bugungi kunda taksonomiya, tezaurus, ontologiya kabi atamalar keng qoʻllanilmoqda. Taksonomiya – boshqariladigan lugʻat boʻlib, tarmoqli (shajarasimon) tuzilgan ajdod-avlod (ota-ona – farzand), butun – qism kabi boshqa munosabatlar asosida tuzilgan ierarhik majmuadir.

Tezaurus esa taksonomiyadan kattaroq soʻzlardagi murakkab munosabatlarni oʻz ichiga oluvchi boshqariladigan lugʻat turidir. Unda ham ierarhik, ham ekvivalent munosabatlar aks etadi.

Murreyning OED (Oxford English dictionary)si 1928-yilda anʼanaviy diaxron aspektida tuzilgan va unda leksikologik bilimlarning sinxronik jihatlari inobatga olinmagan. XX asr boshlarida psixolingvist va lingvistlar hamkorligida til resursini lugʻat shakliga keltirishda sinxron aspektni ham hisobga olish muhim deb qarala boshlangan. Miller and Johnson-Laird (1976) tilning leksikal komponentini tahlil qiluvchi sohani *psixolingvistika* deb nomlaydi. Tezaurusda har bir soʻz turkumi oʻzining muyyan xoslangan kategoriyasiga koʻra ierarhik tarzda tasniflanadi. Bu jihatdan WordNet tezaurusga oʻxshab ketadi. Laurens Urdangning tahriri ostida *The Synonym Finder* (1978) va Robert L. Chapman tahriri ostida *Roget's International Thesaurus* (1977) kabi lugʻatlar tuzilgan. Biroq tezauruslarning muammoli jihati shunda ediki, biror soʻzning *Wx* va *Wy* sinonimlari boʻlsa, uni alfavit holda ikki marta kiritish va ikki marta qidirish kerak boʻladi. Agar bu vazifa kompyuter ixtiyoriga oʻtkazilsa, tez va samarali boʻlishi taʼkidlanadi.

Ontologiya ontologik model ustidan interfeys bilan bir nechta maʼlumotlar bazasi bilan ierarhik tarzda konseptual tuzilishini taʼminlashda MB bilan birga qoʻllaniladi.

Masalan, o‘zbek tilining Grammatik qoidalarini ontologiyasi yaratishning qulayligi shundaki, ushbu tuzilmada dastur uchun so‘rov yaratish va sxemasini yaratish imkoniyati mavjud.



## 1. Tezauruslar va terminologik lug‘atlar.

**Tezaurus (TS)** (thesaurus) yunon tilidan olingan termin bo‘lib, *xazina* ma’nosini beradi. Lug‘atlarda, xususan, LINGVO 5da quyidagi tasniflar berilgan:

I.

- 1) ideografik lug‘at;
- 2) sinonim va antonimlar lug‘ati;
- 3) *so‘zl.* ma’lumotnoma, ensiklopediya

II. informatikada kalit terminlar orqali qidiruvni amalga oshiruvchi hamda kompyuterda saqlanuvchi muayyan soha bo‘yicha ma’lumotlarning tizimlashtirilgan majmuasi.

2. Tillarni avtomatik qayta ishlashda omonim, sinonim, atoqli otlar, iboralarga oid lug‘atlar.

Web-tezaurusi yoki WWW- tezaurusi Internet resurslardan foydalanish hamda axborot qidiruvi uchun WWW global gipermatnli tizimi tezauruslari ham lug‘atlarda qayd etiladi. Tezaurus haqidagi fikrlar bildirilar ekan Adam Kilgariff



va Kollin Yallopning Tezaurusdagi nima? (What's in a theaurus?)<sup>4</sup> maqolasiga murojaat etamiz. Unga ko'ra, TS bir guruhga kiruvchi bir-biriga yaqin ma'noli so'zlarning resursi sifatida uning quyidagi turlari ko'rsatiladi:

1. Roget TS:

- Kitob shaklidagi mualliflar tomonidan yartailgan **Roget** TS yozuvchilar uchu so'z qollashda yordam beradi;
- Wordnet va EuroWordNet;
- Axborot qidiruv tizimida TS foydalanish;
- Korpuslarini qayta ishlash orqali hosil bo'ladigan avtomatik tezauruslar. Kompyuter lingvistikasida, shubhasiz, TSga oid adabiyotlarning turli xili topiladi.

Roget tipidagi TSda nafaol so'zlar, inglizcha bo'lmagan so'zlar, ismlar, eskirgan va nofrazali ifodalar, iboralar yig'ilgan bo'lib, bu yozuvchiga, qolaversa, ingliz tili chet tili bo'lgan foydalanuvchilarga so'zni to'g'ri tanlashda va qo'llashda katta yordam beradi. Undagi leksemalar so'z turkumlari bo'yicha tuzilgan bo'lib, bog'langan kalit so'zlar orqali katta hajmdagi semantik korpusda o'z ifodasini topgan. Xususan, **NATURE** (tabiat) so'zini so'z turkumlari bo'yicha quyidagicha tasniflaydi va semantikasini beradi:

<b>n.</b>	1.		<b>nature</b> , the great outdoors, the wild, tiger country, waste, wilderness area; balance of nature, ecosystem.
	2.		<b>ecology</b> , autocology, bionomics, natural history, nature study...
	3.		<b>naturalist</b> , bionomist, ecologist, physicpher, natre lover, conservationist, greenie
	4.		<b>primitive</b> , child of nature, noble savage, savage
<b>adj.</b>	5.		<b>natural</b> , innate, instinctive, normal, unformed, unschooled


<sup>4</sup> [www.kilgarriff.co.uk](http://www.kilgarriff.co.uk)

	6.		<b>wild</b> , feral, ladino, tameless, warrigal, wilding (Archaic), wildish; <b>undeveloped</b> , rough, trackless, unimproved...
<b>v.</b>	7.		<b>go back to nature</b> , escape, go bush, go wild, rough it
<b>adv.</b>	8.		<b>naturally</b> , wild; <b>primitively</b> , savagely, wildly; <b>instinctively</b> , by birth

Biroq yuqorida qayd etilgan ushbu soʻzlarning barchasini, yaʼni vergul bilan ajratib koʻrsatilganlarni sinonim deb baholash mumkin emas, jumladan *autocology*, *bionomics*, *natural history* oʻzaro maʼnodoshlik kasb etmaydi, ular bir-biriga yaqin sohalar *wild*, *feral* oʻizaro maʼnosh sanalsa-da, soʻz qoʻllashda maʼno farqlaydi.

Lugʻatlarning formati ikki jihatdan farqlanadi: mashina oʻqiy oladigan va elektron shakldagi lugʻatlar. Biroq elektron shakldagi tayyor lugʻatlardan maʼlumotlar bazasi sifatida ham foydalanish mumkin va aksincha. Elektron lugʻatlar foydalanuvchiga ilovadan foydalanishning qulay imkoniyat yaratishi, qulayli, qtisodiy tejamkorligi jihatidan samarador hisoblanadi. Bu boʻyicha eln lugʻatlarning maʼlumotlar bazasi toʻgʻri loyihalshirilishi kerak. Murakkab mantiqiy strukuralar uchun bir nechta maʼlumotlar bazasi mavjud: FileMaker Pro, SQL, Oracle va sodda maʼlumotlar bazasi: Microsoft Excel, Access, Microsoft Word kabilar.

“Inglizcha-oʻzbekcha va oʻzbekcha-inglizcha ilmiy terminlarning izohli lugʻati” Android operatsion sistemasi uchun moʻljallangan. Hamda SQLite maʼlumotlar bazasi boshqaruv tizida ishlaydi. Maʼlumotlarni loyihalash informatsion tizimi doirasining bosqichlaridan biri sanaladi. Yaratilgan maʼlumotlar bazasi uchinchi normal shakl hisoblanadi. har bir maydon takrorlanmas va boʻlinmas boʻlishi

Terms	
	id
	uzbWord
	uzbExpl
	engWord
	engExpl

lozim. Kiritilgan kalit yagona holatda kiritiladigan birliklarni aniqlaydi. Hecha qaysi bir kalitga ega bo‘lmagan maydon boshqa kalitga ega bo‘lmagan maydonga bog‘liq bo‘lishi kerakmas. [4]. Ushbu tasvirdagi ma‘lumotlar bazasi kompyuter lingvistikasi terminlarining inglizcha-o‘zbekcha izohidan iborat. Faol qo‘llaniladigan mobil ilovalar uchun Oslardan biri bu Google Android OS hisoblanadi quyidagi ilovalar esa ularni takomillashtirishga xizmat qiladi: Android SDK, Eclipse, Java and XML dastulash tillari, SQLite ma‘lumotlarni boshqarish tizimi.

Ilova operatsiyani tezligi va xotirani saqlash uchun xizmat qiladi. Bundan tashqari qidiruv tizimida filter ishlatiladi, bunda so‘zlikning dastlabki harflari kiritilganda faqat mana o‘sha harflar bilan boshlanadigan terminlarning ro‘yhatini chiqarib beradi bu esa qidiruv tizimini yanada tezlashtirishga xizmat qiladi. Quyida dasturning kodi berilgan:

```
for (int i=0;i<arl.size();i++)
{
    if(arl.get(i).toLowerCase().startsWith(strName) ||
arl.get(i).toLowerCase().equals(strName))
    {
        res.add(arl.get(i));
    }
}
```

Boshqa lug‘at bilan bog‘liq qidiruv tizimi uchun quyidagi dasturlash tili berilgan:


```
final List<Words> wlist = db.getAllUzbWords();
btn.setText("uz-en");
btn.setOnClickListener(new OnClickListener() {
public void onClick(View v) {
if(position==1)
{
```

```

btn.setText("en-uz");position=2;
Lang(db.getAllWords());
}
else if (position==2)
{
btn.setText("uz-en");position=1;
Lang(db.getAllUzbWords());

```

Ilova uch bosqichni o‘z ichiga oladi: lug‘atning tilini tanlash (English-Uzbek or Uzbek-English), qidirish va natija.



### Semantik to‘r va ma’lumotlar bazasi bilan ishlash.


**Wordnet/EuroWordNet.** 1985-yili Princeton universiteti lingvistlari va psixologlari Wordnet nomli leksik ma’lumotlar bazasini yaratish loyihasi bo‘yicha tadqiqot olib boradilar. Unga ko‘ra WordNet tahminan 95600 so‘zshakllarining (51,500 so‘z va 44,100 so‘z birikmalari) 70,100 ta ma’nolari, sinonimlar bilan berilgan. Shulardan tahminan 57000si otga tegishli so‘z shakllari va ularning 47000tasi ma’nolari kiritilgan. Maqolalar miqdori tahminiy aytilishining sababi shundaki, onlayn tizimida bu ko‘rsatkich doimiy ravishda o‘sib, o‘zgarib turadi. WordNet va boshqa standart lug‘atlarning farqi shundaki, WordNetda faqat ot, fe‘l, sifat va ravishdan iborat bo‘ladi. [1. P.2, Introduction to WordNet: An On-line Lexical Database George A. Miller, Richard Beckwith, Christiane Fellbaum, Derek Gross, and Katherine Miller]

WordNet (Fellbaum, 1998) psixolingvistik tadqiqotlari doir leksik ma'lumotlar bazasidir. Prinston universitetida tuzilgan bu tizim til muhandisligi tadqiqotlarida foydalaniladi. WordNet ot va fe'l turkumidagi so'zlarning sinonimi va giponimlari va sifatlar uchun antonimlar asosida tuzilgan. WordNet fe'llar uchun troponimlar va otlar uchun giponimlar terminini farqlaydi. Har bir so'zning ma'nosi synsetda (sinonimlar tizimida) berilib ierarxik va o'zaro semantik aloqalari ifodalangan.

1.	Nature, wild, natural state, state of nature--(a wild primitive state untouched by civilization; "he lived in the wild"; "they tried to preserve nature as they found it")  =>state--(the way something is with respect to its main attributes; "the current state of knowledge"; "his state of health"; "in a weak financial state" )
2.	Natural phenomenon, nature--(all non-artificial phenomenon)  => phenomenon--(any state or process known through trough the senses rather than by intuition or reasoning)

WordNet ingliz tilining leksik ma'lumotlar bazasi hisoblanadi. Undagi ot, fe'l, sifat va ravish so'z turkumlari muayyan konseptni ifodalovchi sinonimlar guruhiga (Synset) birlashgan. Synsetlar konseptual-semantik va leksik munosabatlarga ko'ra o'zaro bog'langan. WordNetdan foydalanish uchun bepul va o'rnatib olish mumkin. Uning tuzilishi kompyuter lingvistikasi va tabiiy tilni qayta ishlash uchun foydali Wordnet ayrim jihatlari bilan tezaurusga o'xshaydi, biroq ayrim farqli jihatlari ham kuzatiladi. "WordNetning ichki bog'lanishi so'zshakli (harflar qatori) bilan emas, so'zlarning ma'nolari bilan yuzaga kelgan. Natijada so'zlar semantik ko'p ma'noli bo'lgan boshqa so'zlarga yaqin bo'lgan variant bilan topiladi. WordNetda semantik munosabatlaridagi so'zlarni

tasniflangan, tezaurusda muayyan soʻzga yaqin boʻlgan soʻzlar chiqmaydi<sup>5</sup>. WordNetdagi asosiy munosabat bu sinonimiyadir: *katta-ulkan, yigʻlamoq-hoʻngramoq* kabi. Bir xil konseptga birlashtirilgan va kontekstdagi oʻzaro oʻzgaradigan sinonimlar tartiblanmagan qatorlarga (set) birlashgan. WordNetdagi har 117 000 synset kichik hajmli konseptual munosabatlarga koʻra boshqa synsetlarga bogʻlangan. Synsetda qisqa izohlar (“glos”) berilgan boʻlib, koʻp hollarda bir yoki undan ortiq synsetdagi birliklarni qoʻllanilishiga doir misollar keltirilgan. Har bir WordNetdagi maʼnoviy shakl faqat bitta boʻladi. WordNetdagi soʻzlar subordanatsion, yaʼni butun qism munosabatga qurilgan. Soʻzlar iyerarhik ravishda yuqoridan quyi tomon (giperonim, giponim) umumiy {furniture, piece\_of\_furniture} synsetdan maxsus synsetga qadar {bed} va {bunkbed} birlashadi. Shunday qilib WordNet mebel kategoriyasi yotogʻ va ikki kishilik krovat soʻzlariga bogʻlanadi. Barcha ot soʻz turkumiga tegishli soʻzlar ildiziga qarab oʻsib boradi. Giponim oʻtuvchan boʻladi: agar kreslo kursining turi boʻlsa va kursi mebelning turi boʻlsa, u holda kursi ham kreslo ham mebelning turi sanaladi. Buni quyidagi ifoda bilan berish mumkin:



Muhim jihatlardan biri sinonimiya va polisemiya tarjimada bir qator murakkabliklarni yuzaga keltiradi. Masalan, bir soʻzning bir nechta maʼnolari va ularning sinonimlari boʻlishi mumkin. Unda “sinonimiya soʻzshakllar oʻrtasidagi leksik munosabatlar hisoblanib, sinonimiyada soʻzlarning oʻrtasidagi asosiy farqi {} belgisi bilan, boshqa qoʻshimcha leksik aloqalar [] belgisi bilan belgilanadi.”

<sup>5</sup> <https://wordnet.princeton.edu>

WordNet tizimida ingliz tilidagi barcha soʻz turkumlarining semantik maʼnolari ifodalangan va u semantik aloqalar orqali tashkillashtiriladi. Ot soʻz turkumi misolida ushbu lugʻatning xususiyatlari tahlilga tortilar ekan, uning hajmi 80000 dan ziyod ot soʻz turkumiga toʻgʻri kelishi va bu koʻrsatgich muayyan leksemani nutqiy birlik sifatida voqealinishida soʻz birikmasi holatida qoʻllanish imkoniyati qamrab olingan. WordNetda berilgan soʻzlar kompyuter oʻqiy olmasada, ushbu lugʻat kompyuter leksikografiyasida erishilgan innovatsion yutuqlardan biridir. Chunki unga ilova etilgan soʻzliklar mashina oʻqishi uchun mumkin boʻlgan holatga moslashtirilgan. Odatiy lugʻatlarda kiritilgan soʻzliklarning talaffuzi, grammatik shakllanishi, yasalishi, etimologiyasi, izohi hamda sinonim, antonim kabi yana bir qator lingvistik xususiyatlari singdirilgan boʻladi. Bunday belgilar mashina oʻqishi mumkin boʻlgan imkoniyati mavjud boʻlmaganligi bois aksariyat jihatlari tushirib qoldiriladi, xususan, WordNet yuqorida qayd etilgan talaffuz, etimologik tavsif va shunga oʻxshash maʼlumotlarni oʻz ichiga qamrab olmaydi. Ushbu lugʻatda oʻrin olgan maqolalarning qoʻllanishida ifoda maʼnolarining semantik xususiyatlarini ochib berish bilan bogʻliq afzalliklarni yaratish, qolaversa toʻgʻri tarjimaga erishishda soʻz maydonlarini mantiqiy loyihalash birlamchi mezon boʻlib hisoblanadi. Shu jihatdan WordNet soʻzlarning semantik aloqalarini chuqur oʻrganishda sinonimiya hodisasi muhim deb qaraladi. WordNetda sinonimlar muayyan bloklarga ajratilib, semantik jihatdan tasniflangan. Sparck Jones (1964, 1986) oʻzining semantik kallasifikatsiya nazariyasiga asos solgan tadqiqotchidir. U oʻzining bu boradagi izlanishlarida matndan olingan muayyan soʻz shakli boshqa soʻz shakllari bilan birga barcha boʻlishi mumkin boʻlgan sinonimlar tizimini yaratadi. Masalan, u ingliz tilidagi qurol-yarogʻ bilan bogʻliq boʻlgan tushuncha *pellet* hamda *injection* (inyeksiya) soʻzlarining kontekstdagi maʼnodoshi *shot* leksemasi bilan bogʻlaydi, bu esa shartli ravishda muayyan holatdagina sinonimik qatorda mavjud boʻladi. Sinonimlar tizimi (synset) oʻzaro semantik bogʻlangan, biroq har ikki tizimning strukturasi har xil tipga tegishlidir: {*shot, pellet*} va {*shot, injection*}. Bu ikki

to‘plam o‘zaro hech qanday ma’no jihatdan aloqaga kirishmaydi, ya’ni ularni faqat “*shot*” leksemasigina bog‘lab turadi.

Aksariyat Synsetda odatiy lug‘atlardagi izohlardan foydalaniladi. Polisemantik so‘zlarda bir necha ko‘chma ma’nolar ifodalangan glossalar mavjud bo‘lsa, Synsetda faqat yagona glossema mavjud bo‘ladi. WordNetdagi Synset orqali so‘zliklarning leksikallashuv konsepti shakllanadi.

Sinonimlar so‘zshakllar o‘rtasidagi semantik bog‘lanish bo‘lsa-da, semantik bog‘lanish otlarning leksikallashuv konsepti o‘rtasidagi bog‘lanishning muhim tarmog‘i sanaladi. Bular subordinatsiyalar (guruh yoki muayyan tasniflar)ning bog‘lanishi bo‘lib, unga kiruvchi elementlar giponimlar deb ataladi. Masalan, *burgut qush* so‘zining giponimi bo‘ladi, *qush* esa *burgut* so‘zining giperonimi bo‘ladi. Bunday semantik bog‘lanish leksik ierarhiyani hosil qiladi. Odatiy lug‘atlarda ham otlar o‘rtasidagi giponimik bog‘lanish haqidagi ma’lumotlar beriladi (Amsler, 1980).

Leksik ierarxiya quyidagicha tarmoqlanadi: {robin, redbreast} @.-> {bird} @—> {animal, animate\_being} @—> {organism, life\_form, living\_thing}.

@.->belgi shuni ifodalaydiki, muayyan so‘zni boshqa so‘zlikka qarab xususiylashib borishi, ya’ni generilazatsiyalashuvidir. Ss @->ushbu belgi ot so‘z turkumidan tashkil topgan Synsetni boshqa Sg o‘tishini bildiradi. Ya’ni u “turi” degan ma’noni ham ifodalishi mumkin. Jumladan, Synset o‘rtasida doimiy inversiya hodisasi sodir bo‘ladi: Sg ~-> Ss..boshqacha qilib aytganda, Ss Sgning giperonimi, Sg esa Ssning giponimi hisoblanadi. ~->bu belgi giperonimdan giponimga qarab ma’no kengayishi, degan tushunchani ifodalaydi. Nafaqat {bird} synset giperonim bilan bog‘langan bo‘ladi va balki buning tarkibiga barcha qush turlari ham kiritiladi. Bunday bog‘lanish haqida ma’lumotlarni berish hamda ularni tuzish bo‘yicha qo‘yilgan talablar odatiy lug‘atlarda ham mavjud, biroq ularni topishni yanada osonlashtirish zarur. Lug‘atshunoslar so‘zliklarni kiritishda u haqidagi ma’lumotni aylana holatda emas, balki tarmoqli holatda bersa maqsadga muvofiq. Tarmoqlanish kompyuter texnologiyalarda ham samarali



usullardan biri hisoblanadi. Bu metod ma'lumotlar bazasida umumiy bo'lib, mavjud birliklar haqidagi maxsus joyga ID raqami bilan o'zaro bog'liq ma'lumotlarni biriktirish imkonini yaratadi. Ierarhlashuv katta hajmli ma'lumotlar bazasini shakllantirishda kompyuter dasturchilari tomonidan keng qo'llaniladi. (Touretzky, 1986) Chunki tarmoqlanish birliklarga ajratilayotgan joyni tejashda samarali hisoblanadi.

Kompyuter mutaxassislari bu usulni "voris tizimi" deb ham nomlashadi, chunki meros keyingi avloda tarmoqlangan holda uzatiladi. Leksik struktura chiziqli holatda aks etadi: "Agar oy yerning yo'ldoshi bo'lsa, demak oy sayyora; agar u sayyora bo'lsa, quyosh tizimining tarkibi; agar oy quyosh tizimining tizimi bo'lsa, demak bir xil dinamik holatda harakatlanuvchi...". Sinonim, antonim va giponimlar o'zari semantik aloqasi mavjud tushunchalardir. Shuningdek, Word NETda meronimlar (butun-qism munosabatlari) va antonimlar ham o'rin topgan. Masalan, {g'ildirak} so'zi {velosiped} so'zining meronimi hisoblanadi.

Wm #p —► Wh - bu yerda Wm Whning tarkibiy qismi ekanligini bildiradi;

Wm #m —> Wh - Wm Whning a'zosi ekanligini bildiradi;

Wm #s —► Wh - Wm Whning tarkibi ekanligini bildiradi;

#p-WordNetdagi so'zlarning qism to'plam aloqasini bildiradi.


Leksik munosabatlarning muhim sinfi bu so'zshakllari va morfologik aloqalardir. Zotan, WordNetga so'zning muayan grammatik kategoriyasi bilan birgalikda so'z kiritilganda uning boshlang'ich shaklini topishi kerak bo'ladi: *Books=>book*, *geese=>goose*; *go-went-gone-going* kabi. Ierararhik tarzda so'zlarning tasniflanishi muayyan chegaralarga ega. Masalan, meronim butun qism munosabati faqat ot so'z turkumi doirasida, antonym ham shunday holatda bo'ladi. Shu jihatdan so'zlarning uch jihati inobatga olinadi: atributi, qismlari (meronim), funksiyalari. Shu jihatdan Word Net truli semantik komponentlarni o'z ichiga olgan 25 ta yigirma beshta fayldan iborat.

WordNet dagi asosiy munosabat bir xil so'z turkumi ST orasida hosil bo'lgan.

WordNet so'z turkumlaridan iborat subguruhga va ayrimlari kesishuvchi ST

(POS) bo'lingan. Ushbu kesishuvchi ST munosabatlari o'zakdosh bo'lgan morfosemantik aloqada bo'luvchi tizimdan iborat: observe (verb), observent (adjective), observation, observatory (noun). Ot-fe'l juftliklari ot bilan fe'lning semantik rolida juftlashadi: {sleeper, sleeping\_car} {sleep} uchun MAKON va {painter} {paint}ning AGENTi, shunda {painting, picture} NATIJA bo'ladi.

## 2. Axborot qidiruvi (IR) tezaurusi.



O'zbek tilining tezaurusini yaratish uchun yaratilgan WordNet tipidagi analoglardan namuna sifatida o'rganish maqsadga muvofiq. Unga ko'ra ot, fe'l, sifat va ravish so'z turkumiga tegishli so'zlarning yuqorida qayd etib o'tilgan tasnif bo'yicha semantik maydonlarga ajratib lug'atini tuzish

kerak.

### **NAZORAT SAVOLLARI:**

1. Kompyuter leksikografiyasida ma'lumotlar bazasi haqida fikr bildiring.
2. Tezaurus va ontologiya tushunchalarini qanday izohlaysiz. Fikringizni dalillar yordamida tushuntiring.
3. Semantik to'r va ma'lumotlar bazasi bilan ishlashning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Atkins S.R. Zampolli. 1994. Computational approaches to lexicon. Oxford press, Oxford 1994. – 19 p.
2. Christiane Fellbaum. WORDNET an electronic lexical database the MIT Press Cambridge, Massachusetts London, England 1998 Massachusetts Institute of Technology. – 13 p.

3. [https://en.wikipedia.org/wiki/Computational\\_lexicology](https://en.wikipedia.org/wiki/Computational_lexicology)
4. Christiane Fellbaum. Wordnet. An Electronic Lexical Database. 1998 Massachusetts Institute of Technology, P. 23-44
5. Atkins, B. T. S., and Levin, B. (1991). Admitting impediments. In U. Zernik (Ed.), Lexical acquisition: Exploiting on-line resources to build a lexicon, 233-262.
6. Hillsdale, NJ: Erlbaum. Beckwith, R., Fellbaum, C, Gross, D., and Miller, G. A. (1991). WordNet: A lexical database organized on psycholinguistic principles. In U. Zernik (Ed.), Lexical acquisition: Exploiting on-line resources to build a lexicon, 211-232.
7. Berlin, B., Breedlove, D., and Raven, P. H. (1973). General principles of classification and nomenclature in folk biology. American Anthropologist, 75, 214- 42.

## **IV. AMALIY MASHG‘ULOT MAZMUNI**



## 1-AMALIY MASHG'ULOT: MASHINA TARJIMASI TEXNOLOGIYASI.

**Tayanch tushunchalar:** *Tarjima xotirasi, parallel korpus wordfast, smartsat texnologiyalari bilan ishlash tarjima xotirasi. parallel korpuslar. Wordfast, Smartcat texnologiyalari, segmentlash, til birliklari muqobillari.*

### Topshiriqlar:


**1-vazifa.** *Mashina tarjimasi texnologiyasi va tizimlari*

*Mashina tarjimasi tizimlarini sanang va ularning o'zaro farqlarini ayting.*

**2-vazifa.** *Mashina tarjimasi algoritmi*


*Algoritm nima? Mashina tarjimasining algoritmi qanday bosqichlardan iborat?*

**3-vazifa.** *Mashina tarjimasini amalga oshirishda quyidagi ta'minotlarning mohiyatini tushuntiring*



*Kompyuter lug'atlarining ma'lumotlar bazasini yaratishda fe'lga xos qaysi xususiyatlar o'z aksini topadi.*

